



MAHORAT QIRRALARI

Yoshlar tarbiyasi va ijtimoiy-madaniy hayotimizdagi faolligi mamlakat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori, professor Ibrohim Yuldashev professor-o‘qituvchilar jamoasiga turli mutaxassisliklar bo‘yicha magistratura bosqichini tamomlagan yosh kadrlarni ham pedagogik faoliyatga jalb qildilar.



O'ZDSMI – O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI/dsmi.uz

Endilikda yosh izlanuvchilar ilmiy-ijodiy izlanishlari bilan bir qatorda pedagogik faoliyatni ham olib borishmoqda. Institutning “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasi yosh o'qituvchisi Otajon Dostonov dars mashg'ulotlari bilan parallel ravishda amaliy jabhadagi ijodiy faoliyatlarini olib bormoqda.



O'ZDSMI – O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI/dsmi.uz

“Nihol” davlat mukofoti sovrindori, talaba Ahror baxshi Xushvaqtovning yangi “Ko‘za” taronasi uchun videoklip suratga olinmoqda. Ushbu videoklip noyabr oyi boshidan barcha telekanallar hamda ijtimoiy tarmoqlarda tomoshabinlarga uzatilishi rejalashtirilgan.



O'ZDSMI – O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTI/dsmi.uz

G'oya muallifi va postanovkachi rejissyor Otajon Dostonov mazkur ishda yoshlar hayotidan bir lavha ko'rsatib, yosh baxshining ijodiy imkoniyatlarini ochib bermoqda. Ijodkorlarga omadlar tilab, premyerani kutib qolamiz!

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
matbuot xizmati